




*(2022- yil yanvar-iyul oylari  
uchun dastlabki ma'lumot)*

## **NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI**



Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **665,3** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **95,8 %** ni tashkil etdi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	694,4	665,3	95,8	x
<b>Eksport</b> 	261,8	334,6	127,8	100,0
 <u>tovarlar</u>	255,6	332,9	130,2	99,5
 <u>xizmatlar</u>	6,2	1,7	28,0	0,5
<b>Import</b> 	432,6	330,7	76,4	100,0
 <u>tovarlar</u>	409,5	323,0	78,9	97,7
 <u>xizmatlar</u>	23,1	7,7	33,2	2,3
<b>Saldo</b> 	- 170,8	3,9	x	x

*Ma'lumot uchun: Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

Navoiy viloyati jahonning **69** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (**20,4 %**), Rossiya Federatsiyasida (**19,3 %**), Kanada (**13,7 %**), Fransiyada (**9,4 %**) va Qozog'istonda (**8,6 %**) qayd etilgan.

## **NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**

*(2022- yil yanvar-iyul, iyul. AQSH dollari, ulushi, % da)*



<b>Davlatlar</b>	<b>TSA</b>	<b>Eksport</b>	<b>Import</b>	<b>Ulushi, % da</b>
Xitoy Xalq Respublikasi	135,9	30,3	105,6	20,4
Rossiya Federatsiyasi	128,2	48,9	79,3	19,3
Kanada	91,2	88,8	2,4	13,7
Fransiya	62,2	60,4	1,8	9,4
Qozog'iston	56,9	13,5	43,4	8,6
Turkiya	45,3	29,0	16,3	6,8
Turkmaniston	21,2	20,0	1,2	3,2
Qirg'iz Respublikasi	13,7	12,3	1,4	2,1
Koreya Respublikasi	13,4	0,1	13,3	2,0
Hindiston	13,3	-	13,3	2,0

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston, Turkmaniston va Qirg'iz Respublikasi bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Kanada, Fransiya, Turkiya, Koreya Respublikasi, Hindiston, Litva, Ukraina, Eron Islom Respublikasi va Germaniya hissasiga to'g'ri kelgan.

## NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>91,0</b>	<b>127,5</b>	<b>135,9</b>
<i>Eksport</i>	14,9	67,8	30,3
<i>Import</i>	76,1	59,7	105,6
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>84,6</b>	<b>108,9</b>	<b>128,2</b>
<i>Eksport</i>	21,6	19,0	48,9
<i>Import</i>	63,0	89,9	79,3
<b>Kanada</b>	<b>65,4</b>	<b>111,2</b>	<b>91,2</b>
<i>Eksport</i>	65,2	107,6	88,8
<i>Import</i>	0,2	3,6	2,4
<b>Fransiya</b>	<b>79,3</b>	<b>2,5</b>	<b>62,2</b>
<i>Eksport</i>	78,3	-	60,4
<i>Import</i>	1,0	2,5	1,8
<b>Qozog'iston</b>	<b>32,2</b>	<b>35,5</b>	<b>56,9</b>
<i>Eksport</i>	3,5	9,0	13,5
<i>Import</i>	28,7	26,5	43,4
<b>Turkiya</b>	<b>35,1</b>	<b>43,3</b>	<b>45,3</b>
<i>Eksport</i>	17,3	20,6	29,0
<i>Import</i>	17,8	22,7	16,3
<b>Turkmaniston</b>	<b>14,0</b>	<b>11,1</b>	<b>21,2</b>
<i>Eksport</i>	13,5	10,1	20,0
<i>Import</i>	0,5	1,0	1,2
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>27,8</b>	<b>3,3</b>	<b>13,7</b>
<i>Eksport</i>	27,6	2,9	12,3
<i>Import</i>	0,2	0,4	1,4
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>40,1</b>	<b>16,6</b>	<b>13,4</b>
<i>Eksport</i>	-	0,1	0,1
<i>Import</i>	40,1	16,5	13,3
<b>Hindiston</b>	<b>2,3</b>	<b>1,5</b>	<b>13,3</b>
<i>Eksport</i>	-	0,1	-
<i>Import</i>	2,3	1,4	13,3

## NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Litva</b>	<b>42,7</b>	<b>56,0</b>	<b>12,9</b>
<i>Eksport</i>	2,4	7,4	8,8
<i>Import</i>	40,3	48,6	4,1
<b>Ukraina</b>	<b>10,9</b>	<b>14,3</b>	<b>9,7</b>
<i>Eksport</i>	13,3	0,9	0,4
<i>Import</i>	9,6	13,4	9,3
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>2,2</b>	<b>5,4</b>	<b>9,3</b>
<i>Eksport</i>	-	0,7	2,7
<i>Import</i>	2,2	4,7	6,6
<b>Germaniya</b>	<b>19,7</b>	<b>9,3</b>	<b>8,9</b>
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	19,5	9,3	8,9
<b>Afg'oniston</b>	<b>0,5</b>	<b>4,8</b>	<b>7,1</b>
<i>Eksport</i>	0,5	4,8	7,1
<i>Import</i>	-	-	-
<b>Singapur</b>	<b>2,8</b>	<b>3,9</b>	<b>4,1</b>
<i>Eksport</i>	2,6	3,9	4,1
<i>Import</i>	0,2	-	-
<b>Yaponiya</b>	<b>3,2</b>	<b>15,5</b>	<b>3,7</b>
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	3,0	15,5	3,7
<b>Tojikiston</b>	<b>0,5</b>	<b>1,4</b>	<b>2,8</b>
<i>Eksport</i>	0,5	1,2	2,8
<i>Import</i>	-	0,2	-
<b>Tayvan</b>	-	-	<b>2,5</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	2,5
<b>Polsha</b>	<b>3,5</b>	<b>0,4</b>	<b>2,1</b>
<i>Eksport</i>	0,5	0,1	1,5
<i>Import</i>	3,0	0,3	0,6

## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-iyul)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>665 281,0</b>	<b>95,8</b>
Navoiy sh.	368 192,3	82,0
Zarafshon sh.	4 923,4	52,4
G'ozg'on sh.	1 373,8	110,8
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	194 327,2	122,2
Konimex	227,4	14,1
Qiziltepa	50 248,8	4,1 b.
Navbahor	22 014,2	131,6
Nurota	5 132,1	71,9
Tomdi	1 063,6	28,8
Uchquduq	12 466,6	3,8 b.
Xatirchi	4 569,0	18,2
Bo'linmaydigan hajm	742,6	-

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari

**Navoiy sh. – 368 192,3**

**Karmana t. – 194 327,2**

**Qiziltepa t. – 50 248,8**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

**G'ozg'on sh. – 1 373,8**

**Tomdi t. – 1 063,6**

**Konimex t. – 227,4**


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **55,3 %** ulush bilan **368 192,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,03 %** ulush bilan **227,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-iyul oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **35,3 %** ni tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-iyul oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan **83,8 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **64,7 %** ni tashkil etdi.



## NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI


(2022- yil yanvar-iyul)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **334,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **127,8** % ni tashkil etdi.

## XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**59,5** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**22,9** %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**8,8** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

## NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
<b>Jami eksport</b>	<b>261,8</b>	<b>334,6</b>	<b>127,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13,0	10,9	83,6	3,2
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,6	29,6	5,3 b.	8,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,4	4,0	3,0 b.	1,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,2	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	173,4	199,1	114,8	59,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	54,1	76,5	141,5	22,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,5	2,1	4,7 b.	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	7,6	10,4	136,7	3,1
Xizmatlar	6,2	1,7	28,0	0,5

2022- yilning yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2021- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, mashinalar va transport asbob-uskunalari, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




### NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-iyul oylarida eksport hajmi **334,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*



2022- yilning yanvar-iyul oylarida MDH mamlakatlariga **99,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **29,7 %** ini tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2022- yil yanvar-iyul, % da)*



2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining **26,5 %**), Fransiya (**18,1 %**), Rossiya Federatsiyasi (**14,6 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**9,0 %**), Turkiya (**8,7 %**), Turkmaniston (**6,0 %**) va Qozog'iston (**4,0 %**), saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi **86,9 %** ni tashkil etmoqda.

## NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Kanada	107 629,9	88 837,7	82,5	1
Fransiya	0,1	60 427,3	-	2
Rossiya Federatsiyasi	18 949,3	48 896,3	2,6 b.	3
Xitoy Xalq Respublikasi	67 789,4	30 245,5	44,6	4
Turkiya	20 558,2	28 993,7	141,0	5
Turkmaniston	10 056,7	19 975,3	198,6	6
Qozog'iston	9 005,3	13 480,2	149,7	7
Qirg'iz Respublikasi	2 943,9	12 278,1	4,2 b.	8
Litva	7 365,0	8 781,3	119,2	9
Afg'oniston	4 837,0	7 124,0	147,3	10
Singapur	3 857,4	4 122,0	106,9	11
Tojikiston	1 167,9	2 787,3	2,4 b.	12
Eron Islom Respublikasi	715,4	2 691,0	3,8 b.	13
Polsha	128,9	1 471,8	11,4 b.	14
BAA	1 025,6	845,0	82,4	15
Ozərbayjon	62,5	785,6	12,6 b.	16
AQSH	657,7	435,1	66,2	17
Belarus Respublikasi	945,5	417,1	44,1	18
Ukraina	921,4	404,1	43,9	19
Pokiston	1 375,4	351,0	25,5	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **40** tani tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2022- yil yanvar-iyul)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>334 639,7</b>	<b>127,8</b>
Navoiy sh.	231 885,3	120,7
Zarafshon sh.	297,3	11,3
G'ozg'on sh.	976,8	2,9 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	42 699,5	2,0 b.
Konimex	186,0	107,9
Qiziltepa	35 379,0	4,9 b.
Navbahor	15 778,3	130,4
Nurota	3 010,3	110,1
Tomdi	508,9	71,4
Uchquduq	766,4	72,9
Xatirchi	2 833,9	14,2
Bo'linmaydigan hajm	318,0	-

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari

Navoiy sh. – 231 885,3

Karmana t. – 42 699,5

Qiziltepa t. – 35 379,0

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

Tomdi t. – 508,9

Zarafshon sh. – 297,3

Konimex t. – 186,0

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **69,3** % ulush bilan **231 885,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,1** % ulush bilan **186,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-iyul, % da)

XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,6	5,0	3,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	6,9	2,1	8,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,4	0,5	1,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	68,4	66,2	59,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	14,8	20,7	22,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,9	0,2	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	4,6	2,9	3,1
Xizmatlar	1,4	2,4	0,5

2022- yil yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi **8,1** punktga oshib **22,9** % ni, nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari tovarlari ulushi **1,9** punktga oshib **8,8** % ni tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)




XSST tarkibi	Kanada		Fransiya		Rossiya Federatsiyasi		Xitoy Xalq Respublikasi	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>107,6</b>	<b>88,8</b>	<b>-</b>	<b>60,4</b>	<b>18,9</b>	<b>48,9</b>	<b>67,8</b>	<b>30,3</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	-	-	0,9	0,5	0,1	0,8
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	-	-	0,1	20,7	0,3	0,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	0,3	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	106,6	88,7	-	60,4	-	0,3	58,6	26,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1,0	0,1	-	-	10,2	18,4	8,7	3,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-	-	-	-	0,1	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	5,4	7,9	-	-
Xizmatlar	-	-	-	-	2,3	0,8	-	-

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2022- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi **1,7** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,5** % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **28,0** % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**65,4** %), moliyaviy xizmatlar (**18,5** %) va safarlar (turizm xizmatlari) (**16,1** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-iyul, ming AQSH dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **5 267,0** ming AQSH dollar qiymati **8 113,4** tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan **74,9** % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida **1,6** % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida **2 195,3** ming AQSH dollarini, Xatirchi tumanida **1 575,7** ming AQSH dollarini, Karmana tumanida **713,2** ming AQSH dollarini va Navbahor tumanida **521,9** ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-iyul)

Davlatlar	2021- yil			2022- yil		
	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	6 765,6	3 243,6	46,1	4 290,1	1 486,3	28,2
Eron Islom Respublikasi	556,0	560,0	8,0	859,0	962,9	18,3
Xitoy Xalq Respublikasi	128,0	119,5	1,7	673,0	778,0	14,8
Afg'oniston	448,1	363,8	5,2	772,7	539,6	10,2
Rossiya Federatsiyasi	174,4	254,1	3,6	487,1	505,2	9,6
Pokiston	343,8	1 375,1	19,6	174,3	334,7	6,4
Turkiya	-	-	-	142,3	158,9	3,0
Ukraina	51,9	31,6	0,4	189,0	116,2	2,2
Belarus Respublikasi	915,2	505,1	7,2	206,1	115,6	2,2
Iroq	66,9	57,9	0,8	119,8	97,1	1,8
Polsha	-	-	-	84,2	72,7	1,4
Bolgariya	-	-	-	21,0	31,5	0,6
Litva	20,7	3,2	0,1	59,5	27,8	0,5
Isroil	-	-	-	13,5	27,0	0,5
Estoniya	232,0	42,9	0,6	19,5	9,8	0,2
Tojikiston	-	-	-	2,3	3,7	0,1
Boshqa davlatlar	562,6	473,2	6,7			

\* qiymat ifodasidan

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (**28,2** %), Eron Islom Respublikasi (**18,3** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**14,8** %) va Afg'oniston (**10,2** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

## NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

(2022- yil yanvar-iyul)




2022- yil yanvar-iyul oylarida import hajmi **330,7** mln. AQSH dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan **76,4** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**40,2** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**23,4** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**18,4** %) ga to'g'ri keldi.

## XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi **323,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **7,7** mln. AQSH dollariga yetdi.

## NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
<b>Jami import</b>	<b>432,6</b>	<b>330,7</b>	<b>76,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,7	9,1	61,8	2,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,0	7,5	2,5 b.	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	9,3	18,5 b.	2,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	1,4	5,3 b.	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	46,8	60,9	130,1	18,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	61,6	77,6	125,8	23,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	249,2	132,8	53,3	40,2
Turli xil tayyor buyumlar	33,4	24,4	73,1	7,4
Xizmatlar	23,1	7,7	33,2	2,3

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalar (**40,2 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**23,4 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**18,4 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**7,4 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**18,5** barobar), hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar (**5,3** b.), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**2,5** b.), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**30,1 %**) va asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**25,8 %**) o'sgan.




### NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-iyul oyida import hajmi **330,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.


## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **41,0** va **59,0** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Koreya Respublikasi, Hindiston va Ukraina) jami importning **84,7** % ini tashkil qiladi, bu **280,7** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

## NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2022-yil yanvar-iyul, % da)*



## NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Xitoy Xalq Respublikasi	59 699,1	105 626,1	176,9	1
Rossiya Federatsiyasi	89 931,3	79 319,1	88,2	2
Qozog'iston	26 522,2	43 450,7	163,8	3
Turkiya	22 688,3	16 348,7	72,1	4
Koreya Respublikasi	16 500,0	13 325,3	80,8	5
Hindiston	1 372,6	13 286,7	9,7 b.	6
Ukraina	13 397,2	9 348,4	69,8	7
Germaniya	9 281,6	8 856,8	95,4	8
Eron Islom Respublikasi	4 733,1	6 612,7	139,7	9
Litva	48 594,6	4 069,7	8,4	10
Yaponiya	15 451,0	3 699,2	23,9	11
Tayvan	44,5	2 539,4	57,0 b.	12
Kanada	3 606,6	2 375,5	65,9	13
Estoniya	2 711,7	1 965,5	72,5	14
Fransiya	2 495,6	1 814,0	72,7	15
Finlyandiya	934,4	1 713,8	183,4	16
AQSH	74 075,5	1 618,9	2,2	17
Sloveniya	5,9	1 429,1	242,5 b.	18
Qirg'iz Respublikasi	355,0	1 376,4	3,9 b.	19
Avstriya	251,3	1 375,6	5,5 b.	20

2022- yil yanvar-iyul oylari yakuni bo'yicha **56** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2022- yil yanvar-iyul)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>330 641,3</b>	<b>76,4</b>
Navoiy sh.	136 307,0	53,1
Zarafshon sh.	4 626,1	68,5
G'ozg'on sh.	397,0	44,0
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	151 627,7	110,1
Konimex	41,4	2,9
Qiziltepa	14 869,8	3,0 b.
Navbahor	6 235,9	135,0
Nurota	2 121,8	48,2
Tomdi	554,7	18,6
Uchquduq	11 700,2	5,3 b.
Xatirchi	1 735,1	33,7
Bo'linmaydigan hajm	424,6	-

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari

**Karmana t. – 151 627,7**

**Navoiy sh. – 136 307,0**

**Qiziltepa t. – 14 869,8**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

**Tomdi t. – 554,7**

**G'ozg'on sh. – 397,0**

**Konimex t. – 41,4**

Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani **45,9 %** ulush bilan **151 627,7** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Konimex tumani **0,01 %** ulush bilan **41,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.





## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, % da)


XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,3	3,4	2,8
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,6	0,7	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,1	2,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	12,8	10,8	18,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,9	14,3	23,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	61,7	57,6	40,2
Turli xil tayyor buyumlar	6,0	7,7	7,4
Xizmatlar	3,6	5,3	2,3

2022- yil yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida 2021- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **14,3 %** dan **23,4 %** gacha, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarda importining ulushi **10,8 %** dan **18,4 %** gacha, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallarda esa **0,1 %** dan **2,8 %** gacha o'sdi.

2022- yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **7,7** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **2,3** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **33,2** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**62,8** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2** %) va boshqa xizmatlar (**37,0** %) dan iborat bo'ldi.



### XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va**

**savdo statistikasi bo'limi**

**Tel.: (99879) 223-50-43**